

TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI TASHKIL ETISH

Adaxamov Xusniddin Akmaljon o`g`li

E-mail: x6872430@gmail.com

Namangan Institute of Engineering and Technology

Tel +998 93 216 17 26

Jonibekov Zohirjon Davronbek o`g`li

E-mail: zohirjonjonibekov@gmail.com

Namangan Institute of Engineering and Technology

Tel +998 90 090 17 01

Axmadiyev Kamronbek Boxodir o`g`li

E-mail: kamronbekahmadaliyev77@gmail.com

Namangan Institute of Engineering and Technology)

tel +998 91 294 77 84

Annotatsiya: Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo`nalishlari, kichik biznesning milliy iqtisodiyotdagi o`rni va ahamiyati iqtisodiy ko`rsatkichlar orqali yoritilgan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor muhitining tez moslashishi, bandlik daromadning shakllanishini ta'minlaydi va bu uning tengsizligini yumshatish va o`rta mulkdorlar tomonidan berilgan afzalliklarini ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, mulk, sarmoya, ishsizlik, raqobat, import, eksport, yirik biznes.

Tadbirkorlik faoliyati turlari xilma-xildir. Faoliyat maqsadi, turi va yo`nalishlariga qarab tadbirkorlik faoliyati ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va konsalting turlariga bo`linadi. Ushbu tadbirkorlik faoliyatining har bir turi yana kichik turlarga bo`linadi. Mavjud tadbirkorlik faoliyati turlarini 4 guruhga bo`linadi

1. Ishlab chiqarish tadbirkorlik faoliyati turlariga - ishlab chiqarish, innovatsiya, ilmiy texnika, tovar ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish, iste`mol tovarlarini ishlab chiqarish, axborot va boshqalar.

2. Tijorat tadbirkorlik faoliyati turlariga tovar birjalari yoki savdo tashkilotlari bilan bog`liq korxonalar kiradi.

3. Moliyaviy tadbirkorlik faoliyati turlariga Tijorat banklari va fond birjalari moliyaviy tadbirkorlik uchun faoliyat ko`rsatuvchi maqom bo`lib xizmat qiladi. Tijorat banki - aksiyadorlik moliyaviy-kredit muassasasi bo`lib, pul omonatlarini (depozitlami) qabul qiluvchi va mijoz ko`rsatmasi bilan hisob-kitob operatsiyalami amalga oshirib pulli xizmat ko`rsatadi. Tijorat bankining daromad manbai depozit (jalb etilgan) va ssuda mablag`lari o`rtasidagi farqlardan shakllanadi.

4. Kosalting (maslahat) tadbirkorligi faoliyati turlariga bir sohada o‘z mutaxassisligi bo‘yicha yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi kishiga maslahatchi deyiladi. Chet ellarda boshqaruv bo‘yicha pulli maslahat konsalting deb yuritiladi. Konsalting xizmatlari bir martali maslahat ham bo‘lishi mumkin. Maslahat uslublarining uch turi - ekspertli, jarayon va o‘rgatuvchi maslahatlardan iborat.

Mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish, kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish korxonalar faoliyati samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni rivojlantirish va eksport qilish, mavjud zaxiralardan tejamkorlik bilan foydalanish asosida sifatli va arzon xalq iste’moli tovarlari ishlab chiqarish xalq turmush farovonligini oshirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu ustuvor masalalami hal etishda tadbirkorlik faoliyatining hajmigi, faoliyat turiga, tadbirkorning qobiliyatiga, tarmoqlaming ixtisoslashuviga qarab turli shakllarda faoliyat yuritishi uchun imkoniyatlar yaratigan bo‘lib, tadbirkorlik faoliyatini quyidagi 5 ta guruhgaga ajratib qo‘yilgan.

1. Faoliyat yo‘nalishi bo‘yicha: ishlab chiqarish, tijorat, moliyaviy va innovatsion tadbirkorlik faoliyati;

2. Tadbirkorkning qanday vazifani bajarishiga qarab: ishlab chiqarish, boshqarish, moliyalashtirish, vositachilik va konsalting xizmatiga qaratilgan tadbirkorlik;

3. Faoliyat turlarining soni bo‘yicha bitta va ko‘p tarmoqli tadbirkorlik;

4. Faoliyat murakkabligi bo‘yicha: maxsus bilim talab qilmaydigan, maxsus bilim talab qiladigan, yuqori texnologiyaga va maxsus bilimga asoslangan tadbirkorlik;

5. Faoliyatning tarmoq yo‘nalishlari bo‘yicha: sanoat, agrosanoat, qishloq xo‘jaligi, qurilish va boshqa ijtimoiy tarmoqdagi tadbirkorlik.

Bugungi kunda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo’llab-quvvatlash maqsadida jamg’arma tomonidan kafillik va kompensatsiya shaklida moliyaviy yordamlar berib kelinmoqda. Birgina o’tgan yil davomida 20 258 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining tijorat banklaridan olingan 33,208 mlrd. so‘mlik kreditlari bo‘yicha jamg’arma tomonidan 6,993 mlrd. so‘m miqdoridagi moliyaviy majburiyatlar olingan. O‘z navbatida, tahlillar natijasi shuni ko‘rsatadiki, 2020-yilda:

- tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha 5356 ta kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga jamg’armaning 4,172 mlrd. so‘m miqdordagi kafillik majburiyatlar olingan, natijada jamg’armaning kafilligidan foydalanuvchi kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlari soni 2019-yilga nisbatan 4,2 barobarga oshgan;

- tijorat banklari kreditlari bo‘yicha foiz xarajatlarini qoplash uchun jamg’armaning kompensatsiya berish shaklida moliyaviy yordamidan foydalangan kichik biznes va tadbirkorlik sub’ektlari soni esa 14 902 ta yetgan va Jamg’arma 2,821 mlrd. so‘m miqdorda foiz xarajatlarini qoplash yuzasidan majburiyatlar olgan, natijada 2019-yilga nisbatan kompensatsiya oluvchilar soni 4,4 barobar hamda to’lab

beriladigan foiz xarajatlari miqdori 3,3 barobarga oshgan

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

2018-2022 yillar kichik va o`rta biznes

1-jadval

Ko`rsatkich lar	2018	2019	2020	2021	2022
YaIM	62,4	56,0	55,7	54,9	50,5
Sanoat	37,4	25,8	27,9	27,0	23,2
Qurilish	73,2	75,8	72,5	72,4	74,9
Bandlik	76,3	76,2	74,5	74,4	74,8
Eksport	27,2	27,0	20,5	22,3	17,6
Import	56,2	61,6	51,7	48,7	44,7

Mamlakatimizda xususiy mulkdorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoyasini, tadbirkorlik subyektlarining faoliyatiga asossiz aralashuvlardan ishonchli huquqiy kafolatlarni ta`minlab beradigan mustahkam qonunchilik bazasi yaratildi.

Mamlakatimizda 525 mingdan ortiq tadbirkorlik subyekti faoliyat ko`rsatmoqda. Yalpi ichki mahsulotning 56 foizdan ortig`ini shakllantirayotgani, mehnatga layoqatli aholining 78 foizdan ziyodini ish bilan ta`minlayotgani kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy taraqqiyotidagi o`rni va roli tobora ortib borayotganidan dalolat beradi. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan 2017-2021-yillarda O`zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo`nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni ijro etish, jumladan, biznes sohasi vakillari va davlat organlari o`rtasida samarali muloqot va foydali hamkorlik mexanizmlarini yo'lga qo'yish, xususiy mulk va tadbirkorlikning huquq va qonuniy manfaatlarini ishonchli muhofaza qilish kafolatlarini kuchaytirish, viloyatlar va tumanlarda biznes-muhitni takomillashtirish masalalari bo'yicha, shuningdek, tadbirkorlik subyektlariga, avvalo, viloyatlar, shahar va tumanlarda sifatli davlat xizmatlari taqdim etilishini ta`minlash davlat organlari va tadbirkorlik tuzilmalarining o'zaro hamkorligini, ayniqsa, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini endi boshlagan davrlarda ularni qo'llab-quvvatlashning yangi samarali tizimini yaratishni taqozo etadi.

FOYDALANADIGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

- Botirjon o`g`li, M. B., Xasanboy, S. D., & Akmaljon o'g`li, A. X. (2022). ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA MEHNAT BOZORINING TA`SIRI. *PEDAGOGS jurnali*, 12(1), 4-10.

2. Botirjon o'g'li, M. B., & Hasanboy o'g'li, S. D. (2022). Organization and increase of activity of small industrial zones.
3. Muhammadjonov, B. B. O. G. L., & Xudayberdiyev, O. A. (2022). O'ZBEKISTONDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN KICHIK SANOAT HUDUDLARI RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI. *Academic research in educational sciences*, 3(1), 265-273.
4. O'G'LI, M. B. B. (2021). ESTABLISHMENT AND ACTIVITY OF SMALL FREE ECONOMIC ZONES IN THE TERRITORY OF UZBEKISTAN. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 1(2), 156-159.
5. Muhammadjonov, B., Azmiddin ogli, S. M., & Xusanboy ogli, N. H. (2023). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI BANDLIKNI VA AHOLI DAROMADLARINI OSHIRISHDGI O'RNI. *PEDAGOGS jurnali*, 25(1), 136-144.
6. Botirjon o'g'li, M. B., & Hasanboy o'g'li, S. D. (2022). Organization and increase of activity of small industrial zones.